

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

KONSTITUTSIYA – YANGI MADANIY-HUQUQIY RENESSANS POYDEVORI

Adilkariyev X.T.

Nizomiy nomidagi TDPU “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida professoru, yuridik fanlar doktori

Rasulova A.M.

Nizomiy nomidagi TDPU “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida v/b dotsentu, p.f.f.d.(PhD)

Tayanch soʻzlar: konstitutsiya, madaniy-huquqiy, renessans, poydevor, jamiyat, davlat, milliy, gʻoya, madaniyat, ma’naviyat, ta’lim va tarbiya.

Ключевые слова: конституция, культурно-правовая, ренессанс, основа, общество, государство, национальная, идея, культура, духовность, образование и воспитание.

Key words: constitution, cultural and legal, renaissance, basis, society, state, national, idea, culture, spirituality, education and upbringing.

Резюме:

Ushbu mavzuda konstitutsiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va yangi madaniy-huquqiy renessans poydevori sifatidagi oʻrni tahlil qilinadi. Konstitutsiya davlatning huquqiy tizimi va ijtimoiy munosabatlarning asosi boʻlib, jamiyatdagi barcha qonunlar va qoidalarning manbaidir. Unda inson huquqlari, fuqarolarning erkinliklari va davlat organlarining faoliyati huquqiy meʼyorlar asosida tartibga solinadi. Yangi madaniy-huquqiy renessans doirasida, konstitutsiya yangi qonunchilik tashabbuslari va islohotlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ushbu jarayon davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlab, aholining huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi.

Резюме:

В данной теме анализируется значение конституции в развитии общества и ее роль как фундамента нового культурно-правового ренессанса. Конституция является основой правовой системы государства и общественных отношений, а также источником всех законов и правил общества. Он регулирует права человека, гражданские свободы и деятельность государственных органов на основе правовых норм. Рамках нового культурно-правового ренессанса конституция закладывает основу для разработки новых законодательных инициатив и реформ. Этот процесс укрепляет взаимоотношения государство и общества и служит повышению правового сознания населения.

Summary:

This topic analyzes the significance of the constitution in the development of society and its role as the foundation of a new cultural and legal renaissance. The Constitution is the basis of the legal system of the state and social relations, as well as the source of all laws and rules of society. It



regulates human rights, civil liberties and the activities of government bodies on the basis of legal norms. Within the framework of a new cultural and legal renaissance, the constitution lays the foundation for the development of new legislative initiatives and reforms. This process strengthens the relationship between the state and society and serves to increase the legal consciousness of the population.

Bugun jamiyatimiz ulkan yangilanish va o'zgarishlar ruhi bilan yashamoqda. Ushbu shukuh unga yanada ildam hamda jo'shqin rivojlanishga ilhom baxsh etmoqda. Yangilanayotgan O'zbekiston «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining sifat jihatdan yuqoriroq bosqichiga qadam qo'ydi. Ana shunday mas'uliyatli tarixiy bir sharoitda milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, ilm-fan va tafakkurimiz rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Zero, bu jabhalar – yurtimizda shakllantirilayotgan, avj olayotgan Uchinchi Renessansning tayanch ustunlari hisoblanadi.

O'zbekistonni iqtisodiy barqaror, madaniyat va ma'rifat gullab-yashnagan, turmushi farovon yurt-mamlakatga aylantirish maqsadida zamonaviy madaniy «portlash», ya'ni uyg'onish – uchinchi Renessansni vujudga keltirish lozimligi g'oyasi ilk bor mamlakat rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surildi. «O'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy xalqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz» .

Biz bugun yangi Uyg'onish davrini boshlash va unga erishishga bel bog'ladik, bunga haqlimiz. Shubhasiz, xalqimizning salohiyati, irodasi hamda matonati bunga yetarli. Intilganga tole yor, kurash g'alabaning kaliti. Milliy manfaatlarimiz ro'yobi, mustahkam kafolatli kelajagimiz uchun kurashmasak, tarixiy ilg'or taraqqiyot o'zidan chetga chiqib qolish mumkin.

Shuni unutmash lozimki, bugungi dunyo – milliy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi asosida keskin kurash boradigan raqobatli dunyodir. Uning shiddatli zarbalariga esa zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar, innovatsion yutuqlar bilan birga har bir inson o'zining mustahkam irodasi, tafakkur kuchi, yuksak

darajada shakllangan ma'naviy olami asosidagina dosh berish mumkin. Bu – isbot talab etmaydigan haqiqat. Uchinchi Renessansni odamlarda yangi ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarash, jamiyatda esa yangicha iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy munosabatlarni shakllantirmasdan ham barpo etib bo'lmaydi. Yanada lo'nda aytganda, yangi O'zbekiston taqdiri bugun ma'rifiy, madaniiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot sohalarining uzviy bog'liqligi asnosida yuz berishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, “Mamlakatimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi davrga qadam qo'ymoqdamiz. Chunki yangilangan Kons–titutsiyamizni qabul qilish bilan biz Uchinchi Renessans uchun huquqiy poydevor yaratdik. Bugun xalqimiz intilayotgan ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo'shaman, degan har bir yurtdoshimiz, avvalo, ushbu poydevorga tayanib, harakat qilishi lozim”.

Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so'zlari bor. Men yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadim. Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

“Islom madaniyatining oltin asri” deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi. O'n beshinchi asrda Sohobqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirilar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Uyg'onish (renessans) davrida inson omilini rivojlantirish, uning faolligini oshirish bosh tamoyilidir. Shu bois «Inson hayotining qadrini dunyodagi jamiki



ne'matlar birgalikda tashkil etadigan qiymatga tenglashtirib bo'lmaydi», degan g'oya qaror topdi. Ya'ni, inson olamning yenzir xilqati, bebaho ne'mati ekanligini anglash ijtimoiy ongning mulkiga aylandi. Bunday yondashuv, bunday g'oya va talqin Konstitutsiyamizdagi huquqiy va ahloqiy talablarda o'z ifodasini topganligi e'tiborga molik.

Har qanday milliy ko'tarilish, milliy uyg'onish madaniyat sohasi rivojisiz yuz berishi mumkin emas. Bu barcha Renessans davrlarining oltin qoidasidir. Shuning uchun bugun bejiz milliy madaniyatni rivojlantirish, uning milliy taraqqiyotimizdagi o'rni va ta'sirini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmayapti.

Buni so'nggi besh yilda madaniyat, adabiyot va san'at sohasiga oid 4 ta qonun, Prezidentning 35 ta farmon va qarori, hukumatning 98 ta qaror va far-moyishi qabul qilinganidan ham anglash mumkin. Ayniqsa, 2018 yil 28 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi mamlakatimiz ijtimoiymadaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Shuningdek, 2019 yil 20 yanvarda «Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Unda madaniyat va san'atning yangi O'zbekiston taqdiridagi o'rni va roli, ushbu fenomen hodi-saning jamiyat a'zolarini tarbiyalashdagi ishtiroki masalalari har tomonlama belgilab berildi. Jumladan, madaniyat sohasida olib boriladigan davlat siyosatida ijodiy faoliyat erkinligi, madaniyatlarning xilma-xilligi, mada-niy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi kabi prinsiplarga muhim e'tibor qaratilishi mazkur sohaning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, mazkur qonunda madaniyatni rivojlantirishda uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoida kiritilishi, bu sohada davlat-xususiy sheriklikning joriy etilishi, madaniy faoliyat sohasida sog'lom raqobat muhiti yaratilishi O'zbekiston jamiyatida ma'naviy, ijtimoiy-madaniy muhitning yanada barqarorlashuviga imkon yaratdi.

Biz hozir Uchinchi Renessansning poydevorini qurishga astoydil kirishdik. Bu, o'z navbatida, milliy manfaatlarni hamma narsadan ustun qo'yishni, demakki, Vatanni faqat shiorlar bilangina sevish emas, vatanparvarlikni yuksak e'tiqod darajasiga ko'tarishni, aniq sa'y-harakatlarni talab etmoqda.

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi davrida madaniyat sohasidagi muhim vazifalardan yana biri – jamiyat a'zolarida yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Biz, axloqiy ildizlari chuqur, g'ururi baland millatimiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ushbu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan qudratli kuchga aylantirishimiz lozim. Boisi g'ururi baland xalqning qadr-qimmatini ham

baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq buyuk maqsadlar hamda marralarni ko'zlab harakatlana oladi.

Mamlakatimizda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yosh yigit-qizlarni ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalarga keng jalb etish, aslida, ulardagi iste'dodni aniqlash va rivojlantirish demakdir.

Ayniqsa, ularni madaniyat, adabiyot, san'at va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, ilmga da'vat va oshno qilish ham yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo'lidagi muhim qadamlardan bo'lishi tayin.

Xalqimizning boy madaniyati bugun o'zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o'zgarishlarini sodir etsagina o'zining ijobiy samarasini beradi. Ana shundagina bugun biz intilayotgan "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" harakatini real umumxalq harakatiga aylantirish mumkin.

Mamlakatimizda vujudga kelayotgan yangi ma'naviy makonning poydevori ijtimoiylik, ma'naviy yetuklik, ahloqiy polik va insonning vijdon amri bilan yashashi asosida quriladi. Ma'naviy makonda inson o'zini o'zi ruhiy jihatdan jilovlay oladi, buyuk ishlarga safarbar eta oladi. Ayni paytda, u o'zining ma'naviy barkamolligi tufayli jamiyat talablari, Konstitutsiyamiz va qonunlarga so'zsiz amal qilgan holda, umummilliy manfaatlar yo'lida ma'naviy mardlik ko'rsatishga tayyor bo'ladi.

Shakllanayotgan zamonaviy muhitda mamlakatimiz fuqarolarida tamomila yangi ijtimoiy davlat va ma'naviy makonni yaratishga ishonch va e'tiqod shakllanmoqda. Mazkur fenomen Yangi O'zbekistonning zamonaviy qiyofasi mazmuniga mos bo'lgan yangi qadriyatidir. Bu kadriyat – nurli istiqbolga erishish, erkin va farovon turmush tarziga erishish niyatidir. «Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir». Imom Buxoriy bobomiz keltirgan hadisi – sharifda aytilganidek, «Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi». Jamiyatimizning niyati – ezgu! Uning negizida esa ma'rifiy uyg'onish saodatiga erishish maqsadi turibdi. Bu inson kapitalini rivojlantirish orqali sodir bo'ladigan hodisa. Shu bois, e'tibor bersak, inson kapitalini rivojlantirish Taraqqiyot strategiyamizning asosiy maqsadiga aylangan.



Eng muhimi, bu yo‘lda biz tanlagan yo‘l yaxlit ma‘naviy asos va bosh mezonga aylanib ulgurdi.

Ilk Renessans davrida «Dorulhikma val-maorif», ya‘ni Hikmat va ma‘rifat uyi» muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, hozirgi O‘zbekistonda yaratilgan shart-sharoitlar, yangi ta‘lim tizimi, ilm-fan va innovatsion – intellektual salohiyat ana shunday hikmat va bilimlar maskanini hosil qiladi hamda uning jadal rivojlanishini kafolatlaydi. Yaratilgan shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar xususidagi gap borganda, jumladan, moddiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ham alohida e‘tiborga molik. Xususan, «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi, «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunlar, Prezidentning 2020 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020 yil 29 oktabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari shular jumlasidandir.

Biz intilayotgan demokratik jamiyatning istiqboli, birinchi navbatda, demokratik qadriyatlar har birimizning qalbimiz va ongimizdan qay darajada chuqur o‘rin olishiga, bu qadriyatlarning nechog‘liq asrab-avaylanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishiga bevosita bog‘liq. Bu borada esa Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish, konstitutsion talablarga qat‘iy rioya etish darkor.

Bugungi kunda yurtdoshlarimizning nafaqat bilimini oshirish, balki ular qalbida va amaliyotida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog‘liq demokratik tafakkur va yangi g‘oyalarni kamol toptirish, ularni yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotini anglash yo‘lida ezgu ishlarga rag‘batlantirish, odamlar ongu shuurida hayotimizning turli sohalaridagi keng qamrovli demokratik islohotlarga dahldorlik, bunyodkorlik, kelajakka ishonch va shukronalik tuyg‘ularini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Intellektual salohiyatning yuksak darajada rivojlanishi xalqning milliy ma‘naviyati yuksalishida ham ulkan omildir. Yana bir muhim jihati – u milliy manfaatlarni himoya qilishda qudratli qurol vazifasini bajaradi. Qolaversa, intellektual jihatdan ilg‘or mamlakatda demokratik qadriyatlar va ko‘nikmalar barqaror rivojlanadi. Chunki intellektual boylik bilim, aqlu tafakkur, ilm-fan salohiyati bilan birga yuksak ma‘naviyatni ham o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyamizning 53-moddasida Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Mamlakatimiz oliy

o‘quv yurtlarida ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuv jarayoni izchil rivojlanayotgani misolida ham ana shu konstitutsiyaviy qoidaning hayotimizga nechog‘liq chuqur tatbiq etilayotgani har kimda mamnuniyat hosil qiladi.

Zamonaviy Taraqqiyot strategiyamizda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili – sifatli ta‘lim-tarbiya bugungi dolzarb yo‘nalishlardan biri ekanligi ta‘kidlangan.

Zamonaviy taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir .

Hozirda yosh avlodga ta‘lim va tarbiya berishning zamonaviy mezonlari hamda andozasi o‘zgardi. Ular bilimni, axborotni, hayot tarziga ta‘sir etuvchi boshqa ma‘lumotlarni nafaqat oilada, maktabda, oliy ta‘lim dargohida emas, balki dunyoviy miqyosdagi verual axborot makonidan, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan, matbuot, radio, televidenie hamda o‘zga manbalardan olish imkoniyatiga egalar. Ta‘lim va tarbiyani tashkil etishda ushbu real voqelikni inobatga olmaslik sira mumkin emas.

Buyuk davlat arbobi Indira Gandining “Bitta qiz bolani o‘qitsangiz, butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, degan so‘zlarida katta hayotiy haqiqat borligini albatta hammamiz yaxshi tushunamiz.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, “Ta‘lim to‘g‘risida” yangi qonun ishlab chiqilib, 2020 yil 19 mayda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi va 7 avgustda Senatning oltinchi yalpi majlisida ma‘qullandi . Mazkur qonunning asosiy xususiyati shundaki, u ta‘lim masalasini tarbiya bilan uzviy bog‘liqligini ta‘minlashga qaratilgan.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi Har kim ta‘lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi. Davlat maktabgacha ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Ta‘lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ladi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta‘lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat‘iy belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Biz maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni”, deb hisoblaymiz.



Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar. Va bu ma‘naviy-ma‘rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar., Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir. Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi.

Ta‘lim olish huquqi:

- ta‘lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta‘lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘limni va boshlang‘ich professional ta‘limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta‘lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta‘lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta‘lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta‘minlanadi”.

Milliy qonunchiligimizda ilk bor “ta‘lim” va “tarbiya” tushunchalariga rasmiy tarzda ta‘rif berildi. Ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon. Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

O‘zbekistonning hozirgi ta‘lim tizimi qo‘yidagilarni:

davlat ta‘lim standartlarini, davlat ta‘lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

davlat ta‘lim standartlarini, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta‘lim tashkilotlarini;

ta‘lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta‘lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta‘lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda, ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Yangi Qonun, hususan, maktabgacha ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, unda maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta'minlashga alohida ahamiyat berildi.

Qonunning 7-moddasiga binoan ta'lim turlari quyidagilardan iborat: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim.

Ma'lumki, ta'lim to'g'risidagi avvalgi (1997 y.) qonunda kasb-hunar kollejlari tizimiga oid qoidalar mavjud edi. Ushbu tizim samara bermadi, o'zini oqlamadi. Endigi yangi Qonunda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish uchun professional ta'lim turi nazarda tutilgan. Ta'limning mazkur turi egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professorional ta'lim berishni o'z ichiga oladi (10-modda). Qolaversa, boshlang'ich, kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shaklida umumta'lim va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida ta'lim amalga oshiriladi.

Qonunda, shuningdek, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim masalalariga oid normalar mustahkamlangan.

Yurtimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishni uch bosqichga ajratish mumkin. Ilk bosqich 1991 yildan 1997 yilgacha, ikkinchi bosqich 1997 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davr. Uchinchi bosqich esa 2017 yildan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda. Bu davrni ta'limda modernizatsiya va raqamlashtirish bosqichi deb baholash mumkin.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining umumiy qamrovi 1991 yildagi 17 foizdan 2016 yilda 9 foizga qadar pasaydi. 2008 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'lim muassasalari soni qariyb 8 foizga oshganiga qaramasdan, bitirib chiqayotgan mutaxassislar salmog'i kvotalar qo'llanishi natijasida 20 foizga qisqardi. 2017-2019 yillarda 6 ta oliy ta'lim muassasasi va 17 ta filial, chet el oliy ta'lim muassasalarining 14 filiali ochildi. 2019 yil noyabr oyi boshida yurtimizda 114 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, shundan 93 tasi mahalliy, 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari edi.

2019-2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida tahsilning sirtqi, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki shakli ochildi. Ayni paytda esa oliy ta'lim



muassasalari soni 141 taga yetdi. Ulardan 26 tasi xorijiy ta'lim muassasalari filiallaridir. Qabul kvotasi 3 barobar oshdi. Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 28 foizga ko'tarildi. Yaqin kelgusida ushbu ko'rsatkichni 50-60 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Yangi Qonunda ta'lim olishning quyidagi shakllari belgilangan:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Qonunning muhim insonparvar xususiyatlari shundaki, unda voyaga yetmaganlarning, yetim bolalarni, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni (shaxslarni), ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo'lgan bolalarni (shaxslarni) o'qitish hamda tarbiyalash masalalari huquqiy tartibga solingan (51, 54-56-moddalar) Jumladan, yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ularning to'liq ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi.

Mohiyati tahlil etilayotgan Qonunda ta'lim muassasasi xodimlari, ta'lim oluvchilar va ota-onalarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, ta'lim jarayoni qatnashchilarining ijtimoiy himoyasi, ta'lim jarayonida mehnat qilayotgan minglab mutaxassislarining, millionlab ota-onalarining huquqiy maqomiga, ularning ijtimoiy muhofazasiga doir jihatlar, shuningdek, majburiyatlari mustahkamlangan (45-48-moddalar).

Qonun bilan kiritil yangiliklardan yana biri shuki, endilikda ta'limning nodavlat shaklini rivojlantirishga, jamiyatimizda intellektual mulk salohiyatidan

samarali foydalanishga, ilm-ma'rifatga doir ish joylari kengayishiga imkon beradi. Nodavlat ta'lim tashkiloti, - deyiladi Qonunda, - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin".

Qonunning alohida boblari ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik, ta'lim sohasini moliyalashtirish hamda unga investitsiya kiritish, shuningdek ta'lim sohasiga oid nizolarni hal etish hamda tegishli qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalariga bag'ishlangan. Bir so'z bilan aytganda, Qonun mukammal va keng qamrovli xususiyatga ega.

Shubha yo'qki, ta'lim to'g'risidagi yangi qonun mamlakatimizning innovatsion rivojlanishini ta'minlashga, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdek ezgu ishga kamarbasta bo'luvchi puxta bilimli hamda salohiyatli yosh avlodni, yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirishga xizmat qiladi.

Jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar ongida ustuvorlik qilayotgan qadriyatlar, qarashlar, demokratik g'oyalari hamda ahloqiy qoidalar sirasida yangicha huquqiy tafakkurni qaror toptirish muhim hisoblanadi. Bunday tafakkur bir tomondan, Konstitutsiya qoidalari, g'oyalari va prinsiplari asosida shakllanadi, ikkinchi tomondan, zamonaviy huquqiy tafakkur Konstitutsiyani yanada takomillashtirish, konstitutsiyaviy islohotlarga turtki beradi.

Shu o'rinda «huquqiy tafakkur» kategoriyasi ma'nosini oydinlashtirib olaylik. Avvalo, huquqiy tafakkur insonning atrofdagi huquqiy voqelik haqida yuridik kategoriyalar vositasida ijodiy fikrlash, faol aqliy tahlil yuritish qobiliyatidir.

Huquqiy tafakkur asosini haqqoniy yuridik bilim, jamiyatda huquqiy vositalar orqali hal qilinayotgan vazifalarni nazariy anglangan holda tushunish tashkil etadi. Istiqol va islohot davrida huquqning tobora inson hayoti va faoliyatining uzviy qismiga aylanib borishi huquq hodisasini yangi darajada tafakkur mavzusiga aylantirishda to'plangan bilimlarni, axborotlarni umumlashtirish va



tizimlashtirishga, huquqning izchil harakatini ta'minlovchi g'oyalar, nazariyalar, mazmunli tushunchalar yaratishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirdi.

Huquqiy tafakkur huquq hodisasining barcha qirralarini ham alohida, ham bir butun, yaxlit, umumlashgan tarzda qamrab oladi. Huquqiy tafakkur huquq ijodkorligi bosqichidan to huquqning amaldagi harakati, uning har bir huquqiy munosabat ishtirokchisi faoliyatida, xatti-harakatida mujassamlanishiga qadar singib boradi. Bu jarayon istiqolning dastlabki kunlarida ayniqsa jadal amalga oshdi. U Konstitutsiyani yaratish va qabul qilish chog'ida yaqqol namoyon bo'ldi.

Huquqiy tafakkur orqali huquqiy qoida qo'llaniladigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy shart-sharoit tahlil etiladi, huquqni yaratish jarayoni ilmiy asoslangan negizga ega bo'ladi, huquqning samarali harakatini ta'minlovchi mukammal yuridik mexanizm yaratiladi va h.k.

Shu nuqtai nazardan huquqiy tafakkur davlatning huquqiy (shu jumladan, konstitutsiyaviy – huquqiy) siyosatini belgilash, huquqiy tizimni shakllantirish, umuman huquq hodisasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, istiqol mohiyatiga mos huquqiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga jamiyatda ayni zamondagi hukmron munosabatlar, amaldagi qonunchilik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqshunoslik fanining darajasi, shuningdek, donishmand ajdodlarimizning boy huquqiy merosi katta ta'sir ko'rsatdi.

Shak-shubhasiz, Yangi huquqiy renessans mavjud huquqiy tafakkurga, huquqiy merosimizga hamda huquqshunoslik sohasidagi ilm-fanga qat'iy tayanib ish ko'rilganida real voqelikka aylanishi mumkin. Ilm-fan va ilmiy faoliyat haqidagi qonun, yuridik ta'lim hamda ilm-fanni tubdan rivojlantirishga oid farmon va boshqa qarorlar huquqshunoslik ilmida ham ulkan "sakrash", yangi marralarga ko'tarilish sodir bo'lishiga yo'l ochmoqda. Bunday muhit zamonaviy huquqshunoslik ilmiy maktablari shakllantirilishi va qaror topishini taqozo etmoqda. Tabiiyki, bunday ilmiy maktablar ilm-fan fidoyisi bo'lgan, mashhur hamda yirik olimlar, ular atrofida uyushgan huquqshunoslik yo'nalishida salmoqli, murakkab ilmiy muammolarni kompleks tadqiq etishga jazm qilgan tadqiqotchilar, maslakdoshlar va shogirdlarning ilmiy-ijodiy kooperatsiyasi samarasi tarzida namoyon bo'ladi.

Huquqshunoslik sohasidagi ilmiy maktablar yurisprudensiyaning muayyan yo'nalishlaridagi: a) ilmiy ta'lim tarbiya maktabi; b) ilmiy tadqiqot olib boruvchi maslakdoshlar jamoasi; v) ilmiy-ijodiy hamkorlik qiluvchi olimlar yaratgan ta'limot, ilmiy meros; g) huquqshunoslikning alohida sohasi hamda yo'nalishlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlar mehnati-ijodi mahsuli shaklida bo'lishi mumkin.

Huquqshunoslik ilmiy maktablari innovatsion ilmiy usullarni, ilmiy tafakkur tarzini hamda ilmiy qadriyatlarining fidoiy elituvchisi bo'lish, keyingi avlodlarga yetkazish missiyasini ado etuvchi olimlar jamoasi faoliyati samarasi, ijodi mahsulidir.

Avj olayotgan yangi Huquqiy renessans davrida yuqoridagi ilmiy yo'nalishlarni yanada taraqqiy ettirish yana tadbirkorlik huquqi, inson huquqlari, ekologiya huquqi, oila huquqi, fuqarolik va jinoyat-protsessual huquqlari, soliq va investitsiya huquqi, yer va suv huquqi va boshqa sohalarda ham ilmiy maktablar yaratish, umuman, yuridik fanni zamon ehtiyojlariga munosib javob beraoladigan darajada rivojlantirish vazifasi turibdi.

Komil ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, istiqloq tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur, huquqshunoslik ilmiy maktablari va xalqimizning yuksak ma'naviy salohiyati Konstitutsiyamizning g'oyaviy – ilmiy hamda mafkuraviy poydevori bo'ldi. Konstitutsiya va yangi qonunlarimiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo'lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, – aholining ilg'or huquqiy ongini, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi va xizmat qilishda davom etmoqda.

Xulosa qilib, mamlakatimiz Konstitutsiyasi hozirgi davr, zamonaviy taraqqiyot taqozosi sifatida maydonga chiqayotgan ma'naviy yuksalish, madaniy va huquqiy Yangilangan Konstitutsiya madaniy-huquqiy renessansning mustahkam poydevori sifatida xizmat qiladi. U inson huquqlari, erkinliklari va davlatning huquqiy asoslarini yangicha ma'noda talqin etib, ijtimoiy adolat, demokratik boshqaruv va qonun ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlaydi. Bunda madaniyat, ma'rifat va ilmga bo'lgan e'tiborning oshishi, xalqning huquqiy ongini va madaniyatining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu tarzda, yangi Konstitutsiya jamiyatning huquqiy va madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. «Янги Ўзбекистон», 2020 йил 30 декабрь.
2. Мор Томас. Утопия.-М-Л, Учпедгиз,1959. – Б. 68.
3. Янги Ўзбекистон, 2020 йил. 1 октябрь.
4. Конституция 30.04.2024